JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 146–162.
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

DEVELOPMENT TRENDS OF UZBEK TELEVISION DURING SOVIET RULE AND NATIONAL INDEPENDENCE

Ilmira Nazrullayevna Rahmatullayeva

Doctor of Philological Sciences
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
rahmatullaevailmira056@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2237-1252
https://doi.org/10.36078/1794378837

(received: August 20, 2026; revised: October 8, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article traces the development of television in Uzbekistan during the Soviet and post-independence periods. It draws on this history to propose ways to strengthen national television in a digital media environment. The study combines historical comparison with description, classification, and qualitative synthesis. It draws on published research on television history, publicly available information on channel launches, and a document on broadcasting reform. The comparison focuses on governance and funding, programming genres and editorial choices, technological change, and audience engagement. The analysis shows how educational and artistic programming developed under centralized Soviet governance and how perestroika created more space for television coverage of social issues. For the post-independence period, the study examines how programming renewed its focus on national history and cultural values amid channel specialization, technological modernization, and continuing editorial constraints. The example of Russian television illustrates the distinction between diversity of ownership and editorial independence. The comparison suggests that technological modernization alone cannot ensure high-quality programming. The article proposes public service television as a possible direction for development and identifies editorial independence, diversity, transparent governance, and accountability as conditions for its effective operation. The findings can inform television journalism education and programming strategies.

Keywords: television in Uzbekistan; development trends; national information policy; freedom of information; digital transformation; television journalism; public service television.

O‘ZBEKISTON TELEVIDENIYESINING SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDAGI ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ilmira Nazrullayevna Rahmatullayeva

Filologiya fanlari doktori
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston televideniyesining shakllanishi va rivojlanishi sovet davri hamda mustaqillik yillari kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi tarixiy tajribani umumlashtirish orqali milliy televideniyening raqamli media muhitidagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqot tarixiy-qiyosiy tahlil, tavsiflash, tasniflash va ilmiy umumlashtirish usullariga asoslanadi. Materialni televideniye tarixiga oid nashr etilgan tadqiqotlar, telekanallarning tashkil topishi haqidagi ochiq axborot va teleradio tizimini isloh qilishga doir hujjat tashkil etadi. Tahlilda boshqaruv va moliyalashtirish, janr hamda mavzu tanlash, texnik yangilanish va auditoriya bilan muloqot mezonlari qo‘llanadi. Sovet davridagi markazlashgan boshqaruv sharoitida ma’rifiy va badiiy ko‘rsatuvlar rivojlangani, qayta qurish yillarida muammoli mavzular hamda ochiq muloqot imkoniyatlari kengaygani ko‘rsatiladi. Mustaqillik davrida milliy tarix va qadriyatlarga murojaat, telekanallarning ixtisoslashuvi, texnik yangilanish hamda tahririy cheklovlar o‘rtasidagi munosabat yoritiladi. Rossiya televideniyesi tajribasi mulkchilik shakli bilan tahririy mustaqillik o‘rtasidagi farqni tushuntiruvchi qiyosiy misol sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolaning ilmiy hissasi tarixiy bosqichlarni yagona mezonlar asosida qiyoslash va texnologik yangilanishning o‘zi mazmun sifatini ta’minlamasligini ochib berishdan iborat. Jamoatchilik televideniyesi istiqbolli yo‘nalish sifatida taklif etilib, uning tahririy mustaqillik, xilma-xillik, shaffof boshqaruv va hisobdorlik shartlari muhokama qilinadi. Xulosalar sifat tahliliga asoslangan bo‘lib, auditoriya reytinglarining statistik o‘lchovi sifatida talqin qilinmaydi. Natijalardan telejurnalistika tarixi va nazariyasini o‘qitishda, shuningdek, televizion dasturlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: televideniye; rivojlanish tendensiyalari; milliy axborot siyosati; axborot erkinligi; raqamli transformatsiya; telejurnalistika; jamoatchilik televideniyesi.

Kirish

Dunyoda globallashuv jarayonlarida TVning an’anaviy ko‘rinishlariga kirib borayotgan o‘ziga xos tamoyillar, uning multimedia, konvergensiya, interaktiv jarayonlarda yuzaga chiqayotgan ijodiy xususiyatlari, taraqqiyoti va istiqbolini belgilash yuzasidan tizimli izlanishlar olib borilmoqda. Muayyan davlatlar televideniyesining rivojlanish tendensiyalari dunyo mediasidagi umumiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda kechishi, ushbu jarayonga xos qonuniyatlar tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi.

Mamlakatimizda so‘z erkinligini ta’minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etish, shuningdek, televideniye sohasini ham tubdan isloh qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shu ma’noda, bugungi kunda mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining muhim qismi bo‘lgan O‘zbekiston televideniyesining rivojlanish imkoniyatlari, tizimli yo‘nalishlari, axborot tarqatish, milliy madaniyatni saqlash, demokratik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni, raqamli texnologiyalarni joriy etish va global media makonga integratsiyalashuv orqali yangi bosqichga ko‘tarilish imkoniyatlari bilan bog‘liq muammolarni hamda istiqbolini nafaqat dunyoviy nazariy izlanishlar, balki mavjud amaliy tajribalar asosida tahlil etish zarurati kuchaymoqda. Milliy televideniyening dunyoda kechayotgan tendensiyalarga moslashuv jarayonini baholab, uning kelgusi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, biznes modellari va auditoriyani jalb qilish konsepsiyalarini qayta ko‘rib chiqish, ayniqsa, muhimdir. Televideniye industriyasi evolyutsiyasi, siyosiy, texnologik va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida media tizimining moslashuvi va transformatsiyasining qonuniyatlarini aniqlash, tahlil etish ahamiyatli va zarur vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Milliy televideniyening raqamli transformatsiyasi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va madaniy merosni targ‘ib qilish orqali O‘zbekiston global media makonida o‘z o‘rnini mustahkamlashi maqsadida milliy televideniyening rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilish nafaqat mamlakat doirasida, balki xalqaro mediatrendlar nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy masalalardandir.

Televideniye tarixini o‘rganishda tomoshabinning kundalik tajribasi bilan efirni boshqarish tartibi o‘rtasidagi munosabat alohida o‘rin tutadi. K. Roth-Ey sovet davrida televizorning xonadonga kirib kelishi davlatning madaniy siyosati bilan tomoshabinning shaxsiy tanlovini bir makonda uchrashtirganini ko‘rsatadi [Roth-Ey, 2007]. Raqamli muhitda shu munosabat boshqa shakl oladi. J. van Dijck va T. Poell jamoatchilik teleradiokompaniyalari ijtimoiy tarmoqlarda auditoriya bilan muloqot qilar ekan, platformaning tijoriy manfaatlari tahririy maqsadlarga qanday ta’sir qilishini ham hisobga olishi kerakligini ta’kidlaydi [van Dijck, Poell 2015].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda mavzuning turli tomonlari o‘rganilgan. N. Abduazizovaning mustaqillik davri jurnalistikasi tarixiga bag‘ishlangan asari televideniyeni O‘zbekiston matbuoti va axborot siyosati tarixiga bog‘lash uchun umumiy doira beradi [Abduazizova, 2007]. H. Akbarovning ishlari kino va televideniye o‘rtasidagi badiiy aloqalar, xususan, dramaturgiya masalalariga qaratilgan [Akbarov, 1991; Akbarov,

2006]. Televideniyening yosh auditoriya bilan munosabati alohida tadqiqot mavzusi bo‘lgan [Rahmatullaeva, 2005]. Bu yo‘nalishlarni birgalikda ko‘rib chiqish o‘zbek televideniyesi tarixini ham jurnalistika instituti, ham ekran ijodiyoti tarixi sifatida yoritish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda sovet davridagi O‘zbekiston televideniyesining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish hamda uning siyosiy senzura, mafkuraviy targ‘ibot va axborot tarqatish tizimidagi o‘rni tadqiq etilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekiston televideniyesining transformatsiya jarayonlarini tadqiq etish, milliy axborot siyosati, axborot erkinligi va bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitidagi rivojlanish yo‘nalishlari aniqlangan. Natijalar o‘zbek televizion maydoni, o‘zbek telejurnalistikasida dolzarb bo‘lgan masalalarga yechim izlangani, televideniyening bugungi globallashuv jarayonlarida jamiyat hayotidagi o‘rni, mavqeini ko‘tarish singari masalalarni ijobiy hal qilishda belgilangan vazifalarning dolzarbligi bilan belgilanadi. Dunyoning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan holda chiqarilgan xulosalarga ko‘ra jamoatchilik televideniyesiga asos solinishi O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin olishiga yordam beradi. Shuningdek, tadqiqot natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalar o‘zbek milliy teleko‘rsatuvlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston televideniyesi tarixida bu masalani bir ko‘rsatuv misolida ham kuzatish mumkin. “Otalar so‘zi — aqlning ko‘zi” ijodkorlari tomoshabinlarning maktublaridan mavzu olgan bir paytda siyosiy axborotning manbalari markazlashgan tartibda belgilangan edi [Rahmatullaeva, 2023: 244]. Demak, tomoshabinning dastur yaratishdagi ishtiroki va tahririyatning siyosiy mavzuni mustaqil tanlash imkoniyati alohida tadqiq etilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston televideniyesining rivojlanish tendensiyalarini sovet davri va mustaqillik yillari kontekstida tadqiq etish orqali milliy televideniyening raqamli media muhitida raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ilmiy-amaliy takliflar berishdan iborat. Shuningdek, O‘zbekiston televideniyesining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish, milliy media makonining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi O‘zbekiston televideniyesining sovet davri va mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlarini tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy hamda ijodiy mezonlar asosida qiyosiy umumlashtirishdan iborat. Bunda texnik yangilanish bilan tahririy mustaqillik va mazmun xilma-xilligi o‘rtasidagi munosabat yoritilib, tarixiy

tajriba asosida jamoatchilik televideniyesi konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari taklif etiladi.

Tadqiqot metodlari. Tarixiy-qiyosiy tahlil uchun o‘zbek televideniyesi tarixiga bag‘ishlangan ilmiy nashrlar, teleradio tizimini qayta tashkil etishga oid hujjatlar, telekanallarning efirga chiqishi haqidagi xabarlar hamda 2016-yilgi saylov kampaniyasida OAV faoliyati kuzatilgan hisobot o‘rganildi. Ko‘rsatuvlar haqidagi ma’lumotlar ularning janri, mavzusi, axborot manbasi va tomoshabin bilan aloqa shakliga ko‘ra qiyoslandi. Muayyan dastur haqidagi kuzatuv faqat manba qamrab olgan davr va kanal doirasida talqin qilindi.

Natijalar va muhokama

Toshkentda muntazam teleko‘rsatuvlar 1956-yilda boshlandi [Shokirova, 2025]. Dastlabki yillarda studiyaga teatr tajribasiga ega rejissyorlar kelgan edi. Ular uchun sahnadagi harakatni zalning istalgan nuqtasidan kuzatish bilan uni kamera nigohi orqali ko‘rsatish orasida kasbiy tafovut bor edi. Ilk efirlar haqidagi xotiralarda rejissyorlarning jonli uzatish paytida boshqaruv pultida ishlashni o‘zlashtirishi alohida tilga olinadi [Rahmatullaeva, 2023: 239].

1962-yil yanvarida efirga chiqqan “Otalar so‘zi” sinov ko‘rsatuvi keyinchalik “Otalar so‘zi — aqlning ko‘zi” turkumiga aylandi [Rahmatullaeva, 2023: 243]. Dastlab bolalar tarbiyasiga bag‘ishlangan suhbatlarda otaxon obrazi yetakchilik qilgan. Tomoshabinlardan kelgan maktublar ko‘paygani sari ijodkorlar muayyan oilaviy voqeani sahnalashtirib, uning oqibatini muhokama qilishga o‘tdilar. 1965-yilgi sonlarda maktub dasturga munosabat bildirish bilan birga navbatdagi ko‘rsatuvning syujetini tanlashga ham xizmat qilgan [Rahmatullaeva, 2023: 244–245].

Yoshlar tahririyatida hajviy janrning rivojlanishi boshqacha yo‘ldan bordi. “Istiqbol egalari” telejurnali uchun tayyorlangan satirik lavhalarda aktyorlar kundalik turmushdagi holatlarni ijro etishgan. Shu tajriba “Teleminiatyuralar teatri”ning shakllanishiga zamin yaratdi. “Otalar so‘zi”da qahramonning xatti-harakati suhbat orqali muhokama qilinsa, teleminiatyurada tomoshabin o‘sha xatti-harakatga kulgi vositasida baho berardi [Rahmatullaeva, 2023: 245–246].

Badiiy dasturlardagi izlanishlar siyosiy eshittirishlarning mavzu doirasiga bir xil ta’sir ko‘rsatmadi. 1960-yillarning ikkinchi yarmida targ‘ibot vazifasi kuchaydi. 1970-yildagi partiya qaroridan keyin ayrim mavzular, jumladan, harbiy sohaga doir axborotga qo‘shimcha cheklovlar joriy etildi. Rejalarda mehnat mavzusiga keng o‘rin ajratilishi ziyolilar va san’atga

bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar uchun ajratilgan joyga ham ta’sir ko‘rsatdi [Rahmatullaeva, 2023: 247–248].

Markaziy, respublika va mahalliy eshittirishlar yagona boshqaruv tizimiga bo‘ysungan. Moliyalashtirish davlat zimmasida bo‘lgan, siyosiy axborotning asosiy yo‘nalishlari ham shu tizimda belgilangan. Respublika studiyasining mahalliy tomoshabinga mo‘ljallangan asar yaratish imkoniyati bilan umumittifoq axborot siyosatini belgilash vakolati o‘rtasidagi farq aynan shu yerda ko‘rinadi [Rahmatullaeva, 2023: 252].

1985-yilda O‘zbekiston televideniyesida “Betacam” videokamerasi qo‘llana boshladi. Undan oldin ko‘chma stansiya bilan tasvirga olishda yoritish, ovoz yozish va boshqa texnik vazifalar uchun katta guruh talab etilgan [Rahmatullaeva, 2024b: 180]. Reportyorning voqea joyida ishlashi uchun bu o‘zgarish amaliy ahamiyatga ega edi. Biroq qaysi voqeani suratga olish va qanday savol berish mumkinligi tahririy boshqaruvga ham bog‘liq bo‘lib qoldi.

Qayta qurish yillarida publitsistik ko‘rsatuvlar uchun voqea joyidagi suhbat va jurnalistning shaxsiy kuzatuvi muhimlashdi. Reportyorning vazifasi tayyor matnni yetkazish doirasidan chiqib, kadrdagi hodisaga izoh berishni ham qamrab oldi. Bu jarayonning ahamiyati muayyan voqeani tomoshabin bilan birga tahlil qilish imkoniyati kengayganida ko‘rinadi [Rahmatullaeva, 2024b: 178–179, 184, 188]. Bu davrning xalq hayotiga yaqinligi faqat siyosiy publitsistikada ko‘rinmaydi. Milliy ruhiyat, turmush tarzi va axloqiy tanlovga murojaat qilgan badiiy dasturlar ham tomoshabinni muhokamaga jalb etdi. Shu ma’noda, keyingi jamoatchilik televideniyesi haqidagi bahs uchun o‘sha davrning ma’rifiy tajribasi ahamiyatlidir.

Mustaqillikning ilk yillaridagi o‘zgarishlarni tushunishda Rossiya tajribasi qiyoslash imkonini beradi. U yerda xususiy telekompaniyalar reklama daromadi va malakali kadrlarni jalb qilib, davlat studiyalari bilan tomoshabin uchun raqobatga kirishdi. O‘zbekistonda ham 1993-yilda “Omad” tijorat kanali ish boshladi. Uning “Daraklar” dasturi poytaxt hayotidagi muammolarni qisqa axborot shaklida ko‘rsatdi. Biroq kanalning keyinchalik “Toshkent” studiyasiga aylantirilishi ikki mamlakatdagi jarayonlar turlicha kechganini ko‘rsatadi [Rahmatullaeva, 2024a: 151–152, 154].

O‘zbekistonda teleradiokompaniyaning huquqiy maqomi va hududiy tuzilishi ham o‘zgardi. 1996-yildagi qayta tashkil etish hududiy bo‘linmalarga ega kompaniya tuzishni ko‘zda tutgan edi [PF-1462, 1996]. Mazkur o‘zgarish orqali hududlar respublika tizimida tashkiliy o‘rin oldi. Mahalliy tahririyatning muammoli mavzuni tanlash imkoniyatini baholash uchun esa shu tuzilma doirasida tayyorlangan dasturlarni ko‘rish zarur

[Rahmatullaeva, 2024a: 152–154]. Davlat axborot buyurtmasiga tayangan tahririyat uchun auditoriya ehtiyojiga qarab mavzu tanlash bilan muassis belgilagan vazifani bajarish har doim ham bir-biriga mos kelmagan. Bu ziddiyat ayniqsa axborot va tahliliy eshittirishlarda seziladi [Rahmatullaeva, 2024a: 152–155].

90-yillarning oxirlariga kelib, o‘zbek telejurnalistikasi makonida mediabozor transformatsiyalari boshlandi. O‘zbekistonda yangi xususiy telekanallar o‘z faoliyatini boshladi. Nodavlat axborot ishlab chiqaruvchilarining telebozorga kirishi ayrim hollarda bosqichma-bosqich kechdi. UzReport axborot agentligi 1999-yilda ish boshlagan, UzReport TV telekanali esa 2014-yilda tashkil etilgan [Kun.uz, 2024]. Bu ikki sana agentlik faoliyati va uning televizion yo‘nalishi tarixidagi alohida bosqichlarni bildiradi. O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilingach, matbuotda so‘z erkinligi borasida qabul qilingan qator qaror va farmonlarga qaramay, televideniye makonida ijobiy, progressiv ahamiyatga molik o‘zgarishlar yuz bermadi. Rossiya televideniyesida raqobatga qurilgan dasturlar bozori vujudga kelgani holda, O‘zbekistonda media bozorining haddan tashqari davlat tomonidan tartibga solinishi, OAVga targ‘ibot vositasi sifatida munosabatda bo‘lish va uning muassisi bo‘lgan davlat siyosatidan farq qiluvchi muqobil qarashlarni rad etish, televideniyeni rag‘batlantirish noaniq va samarasiz davlat axborot buyurtmasi asosida sodir bo‘lgani singari muammolar O‘zbekiston televideniyesi rivojlanishining asosiy aksil-drayverlariga aylandi va zaif raqobatbardoshlik uchun asos bo‘lib xizmat qildi [Rahmatullaeva, 2024a: 152–153].

Mustaqillik yillarida Navro‘z va Mustaqillik bayrami tantanalari, “Sharq taronalari” festivali hamda Buxoro va Xivaning 2500 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar teleekranga olib chiqildi. Masalan, 1992-yil 31-avgustdagi bayram tomoshasini tasvirga olishda maydonga o‘n oltita kamera o‘rnatilgan. Maydonda turgan tomoshabin voqeani bir nuqtadan kuzatgan bo‘lsa, televizion talqinda rejissyor umumiy manzara bilan ijrochining yaqin planini navbatlashtira olgan.

Ma’naviy merosni yoritishda ham yangi mavzular paydo bo‘ldi. “Buyuk ajdodlarimiz” va “Muqaddas qadamjolar” turkumlari orqali diniy allomalar, ular yashagan shaharlar va ziyoratgohlar tarixi televizion hikoyaning mavzusiga aylandi. Bayram translyatsiyasi bir kunlik voqeani qayd etsa, turkum shakli mualliflarga tarixiy shaxs yoki maskanga bir necha ko‘rsatuv davomida qaytish imkonini berdi.

O‘zbekistonda “Yoshlar” telekanalining vujudga kelishi (1998-yil 1-sentabr) mamlakat televideniyesi taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. O‘zbek televideniyesida to‘plangan eng yaxshi an’analarni davom ettirgan holda

ish boshlagan yangi kanal yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifalarni bajarishga kirisharkan, ijtimoiy hayotni tasvirlashda zamonaviy nigoh, tahlil va talqinda jahon telesanoatining ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirish, so‘nggi rusumdagi teletexnologiyalardan foydalanish orqali O‘zbekistonda ixtisoslashgan kanallarning istiqboli mavjudligini isbot qildi [Rahmatullaeva, 2024a: 152, 154–155].

Mustaqillik davri o‘zbek televideniyesi yangilanish davri jahonning yetakchi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan texnika bilan jihozlangani, muallif va rejissyorlarning yangi mavzu va g‘oyalarni aniq, chuqur, hayotda badiiy ta’sirchanligini oshirish jarayonlarida tasviriy-ifodaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani bilan xarakterlanadi [Rahmatullaeva, 2024a: 151–152, 155].

Ijodkorlar tomonidan mavzu, janr, qahramon tanlashda, ko‘rsatuv syujeti qurilishida o‘tgan yillar televideniyesida to‘plangan an’analar ruhi qatorida yangi tasviriy-ifodaviy usullardan foydalanish, o‘ziga xos badiiy vositalar va yechimlarni izlab topishdagi intilishlarida yangilanishlar ko‘zga tashlandi [Rahmatullaeva, 2024a: 151].

Axborot dasturlarida mavzu tanlash imkoniyati turli davrlarda o‘zgarib turgan. Mustaqillikning dastlabki yillariga doir tahlilda rasmiy tashriflar yoritilgani, ayni paytda ichki ijtimoiy muammolar haqidagi tahliliy ko‘rsatuvlar uchun efir imkoniyatlari tor bo‘lgani qayd etiladi [Rahmatullaeva, 2024a: 153–155]. Bu kuzatuv ko‘rsatuvlar mazmunini tavsiflaydi. Tomoshabinlar tanlovini o‘rganish esa o‘sha davrga oid alohida auditoriya tadqiqotini talab qiladi.

Xorijiy seriallar, mahalliy ko‘rsatuvlar va musiqiy dasturlarning kechki efirda qanday joylashganini muayyan kanal jadvalidan kuzatish mumkin. Masalan, Buxoro telekanalining 2020-yil 25-dekabr dasturida soat 20:00 da “Diyor yangiliklari”, 20:20 da “Sektor rahbarining bir kuni”, 20:40 da “Ko‘ngil taronalari”, 21:20 da esa “Halovat ko‘chasi” teleseriali berilgan [Buxoro TV, 2020]. Bitta kechada turli janrlar ketma-ket kelgan bu misol tijoriy va ijtimoiy vazifalarning efirdagi nisbatini o‘rganish uchun dasturlarni kanal hamda davr kesimida qiyoslash zarurligini ko‘rsatadi. Televideniyeda hayotning asosan ijobiy jihatlarini aks ettirishga ustuvorlik berilishi, ijtimoiy-siyosiy muammolarning yetarlicha yoritilmasligi hamda ijodkorlarning mavzu tanlash imkoniyatlari cheklanishi natijasida o‘zbek telemakonida ijtimoiy voqelikning ziddiyat va muammolarini to‘liq aks ettirmaydigan ideallashtirilgan tasviri shakllandi. Ushbu jarayonlarda o‘zbek televideniyesi milliy qadriyatlar, ularni shakllantiradigan asosiy mezonlar, millatning tarixi, urf-odati, an’anasi, ma’naviy merosi, madaniy

boyliklari va ko‘hna tarixiy yodgorliklariga keng ko‘lamda murojaat qilishni boshladi.

2005-yilni televideniye tarixida tashkiliy islohot sanasi sifatida ajratish mumkin. 8-noyabrdagi PF-3678-son Farmonda O‘zbekiston teleradiokompaniyasini O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi etib qayta tashkil etish belgilandi. 27-dekabrdagi PQ-245-son qaror kompaniya faoliyatini tashkil etish choralarini belgilab berdi [PF-3678, 2005; PQ-245, 2005]. Bu hujjatlar boshqaruvdagi o‘zgarishni sanalash va uning rasmiy maqsadini aniqlash imkonini beradi.

Tok-shou, hujjatli-badiiy ocherk, portret-ocherk va portret-reportaj muallifga voqeani ishtirokchi hikoyasi orqali yoritish imkonini beradi. Oilaviy munosabat muhokamasida bunday hikoya shaxsning kundalik tanloviga e’tibor qaratsa, ijtimoiy masala yoritilganda yakka qahramon tajribasini mas’ul tashkilot izohi bilan bog‘lash talab etiladi. Axborot janridagi yangilanishni “Daraklar” va “Davr” misolida ko‘rish mumkin. Birinchisi shahar hayotidagi aniq voqeaga qisqa muddat ichida e’tibor qaratgan. Ikkinchisining haftalik sharhida esa boshlovchi hafta davomida kuzatilgan voqealarni bir dastur doirasida izohlash imkoniga ega bo‘lgan [Rahmatullaeva, 2024a: 154–155]. Janr jihatidan bu ikki usul reportyorning voqea joyidagi kuzatuvi va boshlovchining tahliliy vazifasini farqlashga yordam beradi.

Yuqori aniqlikdagi kamera, harakatlanuvchi tasvirga olish qurilmasi, yoritish hamda montaj usullarini dastur mazmuni bilan bog‘liq holda baholash lozim. Masalan, bir tadbirni bir nechta kamera orqali yoritish sahna, ijrochi va tomoshabinning munosabatini ketma-ket ko‘rsatish imkonini beradi. 1992-yilgi bayram translyatsiyasi bu usuldan foydalanilgan tarixiy misollardan biridir. Tasvirchi va rejissyorlarning ijodiy izlanishlari, yangi maxsus effektlarni qo‘llash imkoniyatlari esa dasturlarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytirdi. Biroq texnik va estetik imkoniyatlarning kengayishi ijtimoiy voqelikning to‘laqonli yoritilishi bilan bir xil sur’atda kechmadi. Natijada real hayot bilan uning televizion talqini o‘rtasida tafovut saqlanib qoldi. Shu bilan birga, jamiyatdagi muammolarni mualliflik nuqtayi nazaridan yoritish va ularning yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan ijodiy tashabbuslar ham kuzatildi. “Oddiy haqiqatlar” ko‘rsatuvi ham hududiy efir jadvallarida uchraydi [Buxoro TV, 2020].

Televideniye ommaviy axborot vositasi sifatida dolzarb ijtimoiy muammolarni yoritish, turli siyosiy kuchlar, partiyalar va ijtimoiy guruhlarning fikrlarini ifodalash hamda fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini rag‘batlantirish vazifalarini bajarishi lozim. Biroq

hayotning asosan ijobiy jihatlarini ko‘rsatishga ustuvorlik berilishi, ijtimoiy-siyosiy muammolarning yetarlicha yoritilmasligi va ijodkorlarning mavzu tanlash imkoniyatlari cheklanishi real voqelik bilan uning televizion talqini o‘rtasidagi tafovutni kuchaytirdi. Efir ishtirokchilarini tanlashdagi cheklovlar hamda kundalik turmush masalalariga bir tomonlama e’tibor qaratilishi ko‘rsatuvlarda fikrlar xilma-xilligi va tahliliy yondashuvning zaiflashishiga olib keldi. Natijada ziyolilar, olimlar va soha mutaxassislarining jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlarini keng auditoriyaga yetkazish hamda jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish imkoniyatlari toraydi [Rahmatullaeva, 2024a: 153–156].

2016-yilgi prezident saylovi davridagi monitoring axborot manbalari xilma-xilligini muayyan davr va dasturlar misolida baholash imkonini beradi. YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi davlat teleradiokompaniyasi siyosiy yangiliklarda davlat nazoratidagi axborot agentliklariga tayanganini, xususiy va hududiy OAV ham ko‘pincha o‘sha manbalardan foydalanganini qayd etdi [OSCE/ODIHR, 2017: 14–15]. Shunday sharoitda bir nechta kanalni kuzatgan tomoshabin ayni voqeaning o‘xshash talqinlariga duch kelishi mumkin edi.

2016-yilga kelib O‘zbekiston mediamakonida jurnalistikaning avtoritar modeliga xos boshqaruv va nazorat mexanizmlari ustuvor edi. OAV faoliyatiga ma’muriy aralashuv televideniye, radio, bosma nashrlar va internet saytlarida mustaqil fikr hamda muqobil qarashlarni ifodalash imkoniyatlarini cheklardi. Davlat siyosatini targ‘ib qilishga ustuvorlik berilishi OAVning axborot yetkazish, jamoatchilik fikrini ifodalash va ochiq muhokamani tashkil etish vazifalarini to‘laqonli bajarishiga to‘sqinlik qildi. Natijada jamoatchilik fikrini aks ettirishdan ko‘ra uni rasmiy qarashlar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuv kuchaydi. Bunday sharoitda dolzarb masalalar yuzasidan muqobil axborotga ehtiyoj fuqarolarning xorijiy OAVga murojaat qilishini rag‘batlantiruvchi omillardan biri bo‘ldi [Rahmatullaeva, 2024a: 153–155; OSCE/ODIHR, 2017: 14–15].

Davlat rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekiston mediamaydonida, jumladan, televideniyeda ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligini kengaytirishga yo‘l ochdi. 2017-yil aprelida faoliyat boshlagan Xalqaro press-klub jurnalistlar, davlat idoralari rahbarlari va jamoatchilik vakillarini bir suhbatga jamladi. Uning sayyor yig‘ilishlari jonli efirga ham uzatildi [Kun.uz, 2017b]. O‘sha yilning 24-iyulida “O‘zbekiston 24” axborot-tahliliy telekanali efirga chiqdi [Kun.uz, 2017a]. Birinchi misolda yangilik savol berish va unga efirda javob olish shaklida, ikkinchisida esa axborot uchun ixtisoslashgan kanal tashkil etilishida namoyon bo‘ldi.

Ayrim tahririy cheklovlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, davlat va nodavlat telekanallarining texnik imkoniyatlari rivojlanishi televizion kontentning tasviriy va texnologik sifatini oshirishga xizmat qildi. Milliy tarixdagi muhim shaxslar va sovet davri voqeligiga bag‘ishlangan filmlarning qayta namoyish etilishi, diniy-ma’rifiy mavzularning yoritilishi televideniyening mavzu doirasini kengaytirdi. Shuningdek, ilgari yoritilishi cheklangan inson erkinligi, ozodlik uchun kurashgan shaxslar hamda xorijda yashayotgan vatandoshlar hayotiga oid ocherklar televizion dasturlarni mazmunan boyitdi.

Internet OAV va podkastlar voqea ishtirokchisiga teleefir vaqtidan tashqarida ham batafsil so‘z berish imkonini yaratadi. Internet OAVning axborotni tayyorlash va tarqatishdagi tezkorligi televideniyening konvergent media muhitiga moslashishi zaruratini kuchaytirdi. Jurnalistik surishtiruv va xalqaro sharhda olimlar, ziyolilar hamda soha mutaxassislarining bilimidan foydalanish televideniyening tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Raqamli muhitda jurnalistning auditoriya bilan aloqasi efir tugagach ham davom etishi mumkin. Tomoshabin savol yuborishi, lavhani boshqalar bilan bo‘lishishi yoki undagi dalilga e’tiroz bildirishi mumkin. Jamoatchilik televideniyesi uchun tahririy masala shundaki, platformada ko‘p munosabat olgan mavzu bilan jamoatchilik uchun ahamiyatli mavzu har doim ham ustma-ust tushmaydi [van Dijck & Poell, 2015].

Davlat va nodavlat telekanallari uchun auditoriya e’tiborini jalb etish bilan dolzarb ijtimoiy masalani chuqur yoritish o‘rtasidagi munosabat tahririy tanlovni talab qiladi. Ko‘ngilochar mazmunning ma’rifiy va tahliliy dasturlar hisobiga kengayishi, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda inson sha’ni va qadr-qimmatiga oid axloqiy me’yorlarga yetarli e’tibor berilmasligi televizion kontent sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday yondashuvlarning davlat telekanallari dasturlarida ham namoyon bo‘lishi ularning jamoat manfaatlariga xizmat qilish vazifasi bilan ziddiyatga kirishadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston televideniyesining jamiyat va davlat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlash, turli axborot manbalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinayotgan masalalarni umumlashtirib, jamoatchilikka tahliliy mazmunda yetkazish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Shu bois telekanalning ijtimoiy mas’uliyatini baholashda muayyan ko‘rsatuvga aniq savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq. Muammo kimning tashabbusi bilan ko‘tarilgan? Undan bevosita ta’sirlangan fuqaro gapira olganmi? Jurnalist mansabdor shaxsning javobini mustaqil manba bilan tekshirganmi? Bunday mezonlar turli mulk

shaklidagi kanallarning dasturlarini bir xil asosda o‘rganish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekiston audiovizual mediamakonida davlat va xususiy telekanallar bilan bir qatorda jamoat manfaatlariga xizmat qiladigan, tahririy mustaqillik va jamoatchilik oldidagi hisobdorlik tamoyillariga asoslangan jamoatchilik televideniyesini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda jamoatchilik televideniyesini tashkil etish masalasini ko‘rib chiqishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Tarixiy tahlilga ko‘ra, O‘zbekiston televideniyesi kuchli mafkuraviy nazorat sharoitida faoliyat yuritganiga qaramay, milliy ma’naviy va madaniy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. U jamiyat rivoji, ma’rifiy g‘oyalar, umuminsoniy qadriyatlar va madaniy merosni ommalashtirishga hissa qo‘shdi. Televideniye jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatuvchi ommaviy axborot vositasi sifatida axborot yetkazish, ma’rifiy dasturlar orqali auditoriyaning dunyo va jamiyat haqidagi bilimlarini kengaytirish hamda rekreativ ehtiyojlarini qondirish vazifalarini bajardi. Shu bilan birga, badiiy va publitsistik ko‘rsatuvlar orqali axloqiy qarashlar, ijtimoiy mas’uliyat va madaniy qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekiston televideniyesi taraqqiyotida davlat tashviqoti va targ‘ibotiga xizmat qilish hamda ma’rifiy-madaniy vazifalarni bajarish yo‘nalishlari yonma-yon kechdi. Bu holat uning faoliyatini faqat mafkuraviy ta’sir vositasi yoki ma’rifat manbai sifatida bir tomonlama baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Televideniye nazariyasi va amaliyotida to‘plangan tajriba uning imkoniyatlari hamda cheklovlarini umumlashtirish, sovet davri madaniy hayotidagi o‘rnini anglash uchun asos yaratadi. Mazkur tajriba zamonaviy jamoatchilik televideniyesi konsepsiyasini ishlab chiqishda ma’rifiy an’analarni saqlash bilan birga, tahririy mustaqillik va fikrlar xilma-xilligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi [Rahmatullaeva, 2023: 247–252].

1960–1980-yillarda o‘zbek televideniyesida jamoat manfaatlariga yo‘naltirilgan ma’rifiy va madaniy xususiyatlar namoyon bo‘ldi. Xalq hayotiga yaqinlik, jamoatchilik fikriga e’tibor, milliy dunyoqarash, qadriyatlar va turmush tarzining yoritilishi uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini kuchaytirdi. Tarbiyaviy mazmundagi ko‘rsatuvlar shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, adolat haqidagi tasavvurlari va faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga xizmat qildi. Biroq ushbu mazmuniy xususiyatlar o‘sha davrda institutsional jihatdan mustaqil jamoatchilik

televideniyesi mavjud bo‘lganini anglatmaydi [Rahmatullaeva, 2023: 243–247].

Qayta qurish davrida televideniyening ijtimoiy-siyosiy faolligi kuchayib, publitsistik ko‘rsatuvlar jamiyatdagi dolzarb muammolarni yoritish va jamoatchilik muhokamasiga olib chiqishda muhim o‘rin egalladi. Oshkoralik va so‘z erkinligi imkoniyatlarining kengayishi tanqidiy-tahliliy yondashuvning rivojlanishiga, auditoriya bilan ochiq muloqotning kuchayishiga hamda OAVga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash uchun sharoit yaratilishiga xizmat qildi [Rahmatullaeva, 2024b: 184–188].

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston televideniyesining transformatsiya jarayonlarida huquqiy kafolatlar bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi ziddiyatlar namoyon bo‘ldi. So‘z erkinligini ta’minlashga qaratilgan qaror va farmonlar qabul qilinganiga qaramay, mediabozorda davlat boshqaruvining ustuvorligi, OAVga asosan targ‘ibot vositasi sifatida yondashish hamda rasmiy siyosatdan farq qiluvchi muqobil qarashlarni yoritishdagi cheklovlar televideniyening rivojlanishini murakkablashtirdi. Ushbu omillar tahririy mustaqillik va ijodiy tashabbus imkoniyatlarini toraytirib, mazmun xilma-xilligi hamda sog‘lom raqobat muhitining shakllanishiga to‘sqinlik qildi. Natijada televideniyening raqobatbardoshligi va auditoriya ehtiyojlariga mos sifatli kontent yaratish imkoniyatlari cheklandi [Rahmatullaeva, 2024a: 148–153].

Kechki efirda serial, ko‘ngilochar ko‘rsatuv va axborot dasturlarining yonma-yon berilishini Buxoro telekanalining haftalik jadvali ham ko‘rsatadi [Buxoro TV, 2020]. Shu bilan birga, televideniyening dolzarb ijtimoiy muammolarni yoritish, turli siyosiy kuchlar, partiyalar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlash vazifalari yetarlicha amalga oshmadi. Ma’muriy nazoratning kuchliligi, hayotning asosan ijobiy jihatlarini aks ettirishga ustuvorlik berilishi hamda ijodkorlarning mavzu tanlash imkoniyatlari cheklanishi real voqelik bilan uning televizion talqini o‘rtasidagi tafovutni kuchaytirdi. 2016-yildan keyingi islohotlar davrida ochiq muloqotga e’tiborning kuchayishi, jonli efirdagi muhokamalarning kengayishi va ilgari yoritilishi cheklangan mavzularga murojaat qilinishi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy muammolarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish imkoniyatlarini oshirdi. Ayrim tahririy cheklovlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, davlat va nodavlat telekanallarining texnik imkoniyatlari rivojlanishi kontentning tasviriy va texnologik sifatini yaxshilashga xizmat qildi. Mavzu va fikr bildirish imkoniyatlarining kengayishi esa jurnalistlarning axborot aniqligi, xolislik va kasbiy etika borasidagi mas’uliyatini yanada dolzarblashtirdi.

Davlat va nodavlat telekanallari uchun auditoriya e’tiborini jalb etish bilan dolzarb ijtimoiy masalani chuqur yoritish o‘rtasidagi munosabat tahririy tanlovni talab qiladi. Ko‘ngilochar dasturlarda milliy-madaniy qadriyatlar, inson sha’ni va qadr-qimmati hamda shaxsiy hayot daxlsizligiga yetarli e’tibor berilmasligi televizion kontentning axloqiy mezonlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bunday yondashuvlarning davlat telekanallarida ham namoyon bo‘lishi ularning jamoat manfaatlariga xizmat qilish vazifasi bilan ziddiyatga kirishadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston televideniyesining jamiyat va davlat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlash, turli axborot manbalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda ko‘tarilayotgan masalalarni tahlil qilish imkoniyatlarini rivojlantirish zarur. Raqamli media bilan raqobat sharoitida multimedia vositalari, konvergent ishlab chiqarish va auditoriya bilan interaktiv hamkorlik shakllarini takomillashtirish ushbu vazifaning muhim yo‘nalishlaridir. Tahririy mustaqillik, mazmun xilma-xilligi va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikka asoslangan jamoatchilik televideniyesini tashkil etish bu jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bunday model milliy televideniyening raqamli transformatsiyasi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va ishonchli axborot taqdim etish orqali axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin [van Dijck & Poell, 2015].

2016-yilgi monitoring va 2017-yilgi jonli muloqot tajribasi ikki alohida mezonni ko‘rsatadi. Birinchisi — xabar olishda foydalanilgan manbalar doirasi, ikkinchisi — suhbat ishtirokchisiga efirda bevosita savol berish imkoniyati [OSCE/ODIHR, 2017: 15; Kun.uz, 2017b]. Jonli suhbatning o‘tkazilgani uning ochiqligi haqida muayyan tasavvur beradi. Tahririy mustaqillikni baholashda savolni kim tanlagani, javob tekshirilgani va boshqa nuqtayi nazarga ham o‘rin ajratilganini o‘rganish zarur.

Xulosa

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston televideniyesining sovet davridagi shakllanishi va rivojlanishi siyosiy senzura, mafkuraviy talablar hamda markazlashgan axborot siyosati bilan uzviy bog‘liq kechganini ko‘rsatdi. Tarixiy tahlil so‘z erkinligi, ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligi telejurnalistikaning rivojlanishida muhim omillar ekanini asoslash imkonini berdi. Mustaqillik yillaridagi transformatsiya jarayonlari esa milliy axborot siyosati, tahririy mustaqillik va bozor munosabatlarining shakllanishi bilan bog‘liq holda kechdi. Sovet va mustaqillik davrlaridagi tashkiliy-huquqiy asoslar, davlat nazorati hamda televizion kontentdagi o‘zgarishlarning qiyosiy tahlili texnik yangilanishning o‘zi mazmun sifatini ta’minlash uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Janrlar, mavzular va axborot yetkazish usullarining rivojlanishi ijodkorlarning mavzu tanlash imkoniyatlari, kasbiy mahorati va auditoriya bilan muloqotiga ham bog‘liq. Televideniyening

ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati uning jamoatchilik fikrini ifodalash, ma'rifiy ehtiyojlarni qondirish hamda ishonchli axborot yetkazish vazifalarida namoyon bo'ladi. Milliy televideniyening istiqbolli rivojlanishi uchun tahririy mustaqillikni mustahkamlash, tahliliy va ma'rifiy kontent sifatini oshirish, raqamli platformalar bilan integratsiyani rivojlantirish hamda auditoriya ishtirokini kengaytirish muhimdir. Shu asosda davlat va xususiy telekanallar bilan bir qatorda jamoat manfaatlari, fikrlar xilma-xilligi va hisobdorlik tamoyillariga tayanuvchi jamoatchilik televideniyesini tashkil etish taklif qilinadi. Mazkur yo'nalishlar milliy mediamakonning raqobatbardoshligini oshirish va televideniyening ijtimoiy vazifalarini samarali bajarishiga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abduazizova N. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. — Toshkent: Akademiya, 2007. — 64 b.

Akbarov H. Kino va televideniye olamida. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. — 208 b.

Akbarov H. Kino-teledramaturgiya: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Ilm ziyo, 2006. — 176 b.

Buxoro TV. Teleko'rsatuvlar tartibi. 2020-yil 21–27-dekabr. https://buxorotv.uz/ru/post/703/

Rahmatullaeva I. Televideniye va yoshlar: kecha va bugun. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. — 109 b.

Rahmatullaeva I. N. O'zbekiston televideniesining shakllanish masalalari, muammolari va rivojlanish tendensiyalari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — 9(6). — B. 236–254. https://doi.org/10.36078/1704096608

Rahmatullaeva I. N. Mustaqillik davri o'zbek televideniyesi: yangi davrning teleijodiyotga ta'siri // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024a. — 10(3). — B. 145–158. https://doi.org/10.36078/1721202324

Rahmatullaeva I. N. O'zbek televideniyesining qayta qurish davridagi faoliyati // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024b. — 10(1). — B. 175–189. https://doi.org/10.36078/1710316622

Roth-Ey K. Finding a home for television in the USSR, 1950–1970 // Slavic Review. — 2007. — 66(2). — B. 278–306. https://doi.org/10.2307/20060221

Shokirova G. B. The historical development of television: From its early stages to the digital era // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. — 2025. — 5(3). — B. 861–862. https://doi.org/10.5281/zenodo.15120067

van Dijck J., Poell T. Making public television social? Public service broadcasting and the challenges of social media // Television & New Media. — 2015. — 16(2). — B. 148–164. https://doi.org/10.1177/1527476414527136

Manbalar

Kun.uz. “O‘zbekiston 24” o‘z faoliyatini boshladi. 24.07.2017 (2017a). https://kun.uz/news/2017/07/24/uzbekiston-24-uz-faoliatini-bosladi

Kun.uz. O‘zbekiston 2017 yilda. Tugayotgan yilning eng muhim voqealari. 30.12.2017 (2017b). https://kun.uz/news/2017/12/30/uzbekiston-2017-jilda-tugaetgan-jilning-eng-muim-vokealari

Kun.uz. Komil Allamjonov UzReport TV’ni 10 yillik yubileyi bilan tabrikladi. 30.04.2024. https://kun.uz/news/2024/04/29/uzreport-tv-10-yillik-yubileyini-nishonlamoqda

OSCE/ODIHR. Republic of Uzbekistan, Early Presidential Election, 4 December 2016: Election Observation Mission Final Report. 2017. https://www.osce.org/sites/default/files/f/documents/c/2/306451.pdf

PF-1462. O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 07.05.1996. https://lex.uz/uz/acts/-176483

PF-3678. Mustaqil teleradio kanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 08.11.2005. https://lex.uz/uz/acts/-902646

PQ-245. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tadbirlar haqida. 27.12.2005. https://lex.uz/mact/-946854

References

Abduazizova, N. (2007). Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. Akademiya.

Akbarov, H. (1991). Kino va televideniye olamida. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.

Akbarov, H. (2006). Kino-teledramaturgiya: nazariya va amaliyot. Ilm ziyo.

Rahmatullaeva, I. (2005). Televideniye va yoshlar: kecha va bugun. Yangi asr avlodi.

Rahmatullaeva, I. N. (2023). O‘zbekiston televideniesining shakllanish masalalari, muammolari va rivojlanish tendensiyalari. *O‘zbekistonda xorijiy tillar, 9*(6), 236–254. https://doi.org/10.36078/1704096608

Rahmatullaeva, I. N. (2024a). Mustaqillik davri o‘zbek televideniyesi: yangi davrning teleijodiyotga ta’siri. *O‘zbekistonda xorijiy tillar, 10*(3), 145–158. https://doi.org/10.36078/1721202324

Rahmatullaeva, I. N. (2024b). O‘zbek televideniyesining qayta qurish davridagi faoliyati. *O‘zbekistonda xorijiy tillar, 10*(1), 175–189. https://doi.org/10.36078/1710316622

Roth-Ey, K. (2007). Finding a home for television in the USSR, 1950–1970. *Slavic Review, 66*(2), 278–306. https://doi.org/10.2307/20060221

Shokirova, G. B. (2025). The historical development of television: From its early stages to the digital era. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5*(3), 861–862. https://doi.org/10.5281/zenodo.15120067

van Dijck, J., & Poell, T. (2015). Making public television social? Public service broadcasting and the challenges of social media. *Television & New Media, 16*(2), 148–164. https://doi.org/10.1177/1527476414527136

Sources

Buxoro TV. (2020, 21–27-dekabr). *Teleko‘rsatuvlar tartibi.* https://buxorotv.uz/ru/post/703/

Kun.uz. (2017a, 24-iyul). *“O‘zbekiston 24” o‘z faoliyatini boshladi.* https://kun.uz/news/2017/07/24/uzbekiston-24-uz-faoliatini-bosladi

Kun.uz. (2017b, 30-dekabr). *O‘zbekiston 2017 yilda. Tugayotgan yilning eng muhim voqealari.* https://kun.uz/news/2017/12/30/uzbekiston-2017-jilda-tugaetgan-jilning-eng-muim-vokealari

Kun.uz. (2024, 30-aprel). *Komil Allamjonov UzReport TV’ni 10 yillik yubileyi bilan tabrikladi.* https://kun.uz/news/2024/04/29/uzreport-tv-10-yillik-yubileyini-nishonlamoqda

OSCE/ODIHR. (2017). *Republic of Uzbekistan, Early Presidential Election, 4 December 2016: Election Observation Mission Final Report.* https://www.osce.org/sites/default/files/f/documents/c/2/306451.pdf

PF-1462. (1996, 7-may). *O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.* https://lex.uz/uz/acts/-176483

PF-3678. (2005, 8-noyabr). *Mustaqil teleradio kanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.* https://lex.uz/uz/acts/-902646

PQ-245. (2005, 27-dekabr). *O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tadbirlar haqida.* https://lex.uz/mact/-946854